



«Blog» va «blog soha» atamalarining rivoji

Ibrohimova Aziza Tohirovna

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Bosma OAV jurnalistikasi yo'nalishi

4-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Barcha bloglar uchun ma'lum bir parametrlar to'plami talab qilinadi. Birinchisi, foydalanuvchi profilidir. Profilning tuzilishi barcha foydalanuvchilari uchun umumiy va majburiy bo'lishi mumkin, shuningdek foydalanuvchining tanloviga ko'ra o'zgaruvchan bo'lishi ham mumkin. Profil muallifi, jinsi, yoshi, ma'lumoti, manzili, qiziqishlari haqidagi shaxsiy ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.*

Blog uchun kerak bo'lgan ikkinchi omil bu – lenta. Bu yozuvlar joylashgan asosiy profil sahifasi bo'lib xizmat qiladi. Blog postida matn, sarlavha, joylashish vaqti va sharhlar haqida ma'lumotlar mavjud. Shuningdek, blog yozuviga muallifning fotosurati, sarlavha, mavzu teglari qo'shilishi mumkin. Lenta sahifasida yordamchi navigatsiya bloklari to'plami joylashadi.

Kalit so'zlar: *“Veblog”, sayt, yo'nalish, tarmoq.*

Texnika-texnologiyaning taraqqiy etishi tufayli kommunikatsiya aloqalarini vaqt va makondan tashqarida amalga oshirish imkoniyati yuzaga keldi. Blog butun dunyoda muloqotning keng tarqalgan turiga aylandi.

Dastlab blog atamasi muallif tomonidan tanlangan boshqa saytlarga havolalarni o'z ichiga olgan hamda foydalanuvchilar unga o'z fikrlarini bildira olgan yangiliklar lentasi sifatida tushunilgan.

“Veblog” (“tarmoq jurnali”) so'zini birinchi bo'lib 1997 yilda Jon Berger ishlatgan. Yangi so'z “logging the web” so'zma so'z tarjima qilinganda “tarmoqdagi kundalikni yuritish” degan ma'noni anglatadi. 1999 yilda Piter Merxolz “veblog” so'zini ikki qismga ajratdi va “we blog” – ingliz tilidan tarjima qilinganda “biz blog



yuritimiz” so’zi paydo bo’ldi. Shu tariqa “to blog” – “internet kundalik yuritish” tushunchasi paydo bo’ldi.¹

Boshqa bir manbaada blog atamasiga quyidagicha ta’riflanadi. Blog (ing. Blog), ya’ni web log so‘zidan olingan bo‘lib voqea-hodisalarni aks etuvchi internet-jurnal, internet-kundalik ma’nosini anglatib, doimiy ravishda yangilanadigan matn, surat yoki multimediyadan iborat veb-sayt.²

Butun internet tizimida ensiklopediya sifatida mashhur Wikipedia elektron nashrida esa blog tushunchasi quyidagicha izohlanadi: Blog – ingliz tilidagi web log so‘zlaridan yasalgan bo‘lib, internet-jurnal, hodisa, internet-kundalik, onlayn-kundalik degan ma’nolarni anglatadi. Avvaliga blog shaxsiy onlayn kundalik sifatida qabul qilingan. Odamlar o‘z fikrlari, biror voqea yoki hodisaga nisbatan munosabatini boshqalar bilan muntazam bo‘lishib borgan. Bugunga kelib blog tushunchasi ancha kengaydi, matn, tasvir yoki multimediyani o‘z ichiga olgan, muntazam yozuvlar qo‘shib boriladigan veb-sayt nazarda [tutiladi](#).³

Blog, deydi rossiyalik mutaxassis O.V.Lutainova – bu teskari xronologik tartibda sanalashtirilgan matnli va multimediyali sayt bo‘lib, unda obunachilar o‘z fikr-mulohazalarini joylashlari mumkin. Shuningdek, blog muallif hayotidan hikoya qiluvchi “shaxsiy tarmoq kundaligi” sifatida ham talqin qilinadi.⁴

Bloglarning elektron pochta, chatlar, yangiliklar guruhidan ustunligi unda obunachi yoki kuzatuvchilarning o‘z sharhi, fikr-mulohazalarini chop qila olishidadir.

An’anaviy kundaliklardan farqli ravishda blogdagi yozuvlar ommabop bo‘lib, foydalanuvchilar muallif bilan bahsga kirishishlari ham mumkin. Blog yurituvchi insonlar bloggerlar, deb ataladi. Internetdagi bloglar majmuasi blogsoha deb yuritiladi. Bloglar elektron pochta, veb-forum va chatlarga nisbatan bir qator afzalliklarga ega.

¹ Чаган, Н.Г. Российская блогосфера: культурологическое и педагогическое измерение // Вестник университета российской академии образования. – 2014. – № 3(71). – С. 87

² Nargis Qosimova. Onlayn jurnalistika. – T.: 2019. – 319-320bb.

³ <https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%91%D0%BB%D0%BE%D0%B3>

⁴ Лутовинова, О.В. Лингвокультурологические характеристики виртуального дискурса. – Волгоград: ВГПУ «Перемена», 2009. – С. 200



Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, birinchi blog egasi Tim Berners-Li 1992-yili internetda o'z sahifasini ochib, unga yangiliklarni joylashtirgan. 1994-yili Jastin Xall Links.net. sahifasini, 1997-yili Deyv Vayner Scripting News, Slashdot sahifalarini ishga tushiradi va Jon Barger "weblog" (veblog) so'zini muloqotga kiritadi. 1999-yili Piter Merxolz uni qisqartirib, blog deb ataydi⁵.

1999-yilga kelib bloglar soni ko'paya boshlagach, AQSHning Pyra Labs kompyuter kompaniyasi bepul, birinchi blog xizmati bo'lmish Blogger.com. saytni ochadi. Blogger.com. sayti. Undan so'ng yaratilgan LiveJournal, Pitas blog yaratish saytlari ularning keng tarqalishiga omil bo'lib xizmat qiladi.⁶

Keng ma'noda, blog ma'lum bir mavzuga bag'ishlangan, faqat fotosurat yoki videoni va boshqalarni o'z ichiga olgan jamoaviy (bloglar hamjamiyati) bo'lishi mumkin. Tor ma'noda esa – bu bitta muallifning xabari. Blog LiveJournal, Diary, Blogger.com singari blog xizmati asosida yaratilishi yoki alohida sayt asosida yaratilishi mumkin.

Barcha bloglar uchun ma'lum bir parametrlar to'plami talab qilinadi. Birinchisi, foydalanuvchi profilidir. Profilning tuzilishi barcha foydalanuvchilari uchun umumiy va majburiy bo'lishi mumkin, shuningdek foydalanuvchining tanloviga ko'ra o'zgaruvchan bo'lishi ham mumkin. Profil muallifi, jinsi, yoshi, ma'lumoti, manzili, qiziqishlari haqidagi shaxsiy ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Blog uchun kerak bo'lgan ikkinchi omil bu – lenta. Bu yozuvlar joylashgan asosiy profil sahifasi bo'lib xizmat qiladi. Blog postida matn, sarlavha, joylashish vaqti va sharhlar haqida ma'lumotlar mavjud. Shuningdek, blog yozuviga muallifning fotosurati, sarlavha, mavzu teglari qo'shilishi mumkin. Lenta sahifasida yordamchi navigatsiya bloklari to'plami joylashadi.

Uchinchi zarur unsur – bu alohida post sahifasining mavjudligidir. Har bir xabarni alohida sahifada ochish va postning to'liq versiyasini va sharhlarni ko'rish mumkin

⁵NargisQosimova. Onlayn jurnalistika. – T.: 2019. – 319b.

⁶Nargis Qosimova. Onlayn jurnalistika. – T.: 2019. – 320b



bo'ladi. Va oxirgi to'rtinchi element – bu “do'stlar tasmasi”, muallif obuna bo'lgan boshqa bloglardagi xabarlardir.

Bloglarni ma'lumotlarni tashkil etish shakli sifatida ham ajratib ko'rsatish mumkin. Texnik nuqtai nazardan, blog – bu turli xil tarkibni (matnlar, rasmlar, havolalar, multimedia fayllari) o'z ichiga olgan veb-hujjatlar to'plamidir. Bloglashning yana bir texnik xususiyati – foydalanuvchidan maxsus bilim va ko'nikmalarni talab qilmaydigan dasturiy ta'minot ekanligidir.⁷

Blogning tarkibi har xil bo'lib, u fotosuratlar, videolar va matnlarni birlashtirishi mumkin. Blog muallifi global rezonansga ega bo'lgan voqealar haqida yozishi, shuningdek, o'z shahrida, mamlakatda va shaxsiy hayotida sodir bo'layotgan voqealar haqida yozish imkoniga ega. Blog shakli voqealar va fikrlarni yozib olish, fikr bildirish, istalgan narsaning bir qismiga aylanish imkonini beradi. Shu yo'l bilan odamlar o'z fikrlarini bildirishi, blog muallifi bilan munosabatga kirishish imkoniyatiga ega bo'ladilar.⁸

Bugungi kunda “blog” atamasi tor ma'noda, ya'ni shaxsiy yozuvlar jamlanmasini “blog” umumiy nomi ostida birlashtirgan bir to'plam sifatida ishlatilmoqda.⁹ Blog chegarasiz qamrovga ega bo'lib, o'zida ochiqlik va oshkoralikni jamlagan hamda qisqa fursatlarda yoziladigan matnlardan iborat bo'ladi. Uni o'qishning ham turli usullari mavjud bo'ladi. Shu bilan birga blogda faqatgina muallifga ayyon bo'lgan ramz va tushunchalardan ham foydalainilishi mumkin.

Blogning o'ziga xosligi shundaki, u muallifning shaxsiy dunyoqarashi doirasida tuzliadi va bu blogni bir butun bo'lib shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Bloglar birinchi navbatda muallifning fikri va uslubini o'zida ifoda etadi. Bloglarning ikkinchi xususiyati shundaki, ular har doim tarmoqlararo havolalarning bir qismi hisoblanadi.

⁷ Вокуев, Н.Е. Между дневником и масс-медиа: особенности блога как средства коммуникации// Аналитика культурологии. – 2011. – №19. – С. 158.

⁸ Максимова, Т.О. Блог в интернет-коммуникации: структура, функции, литературный потенциал // Вестник Череповецкого государственного университета. – 2017. – № 1 – С. 125.

⁹ Баловсяк, Н., Бойцов, О. Интернет. Новые возможности. – СПб: Питер, 2008. – С. 142.



Ya'ni ular boshqa manbalarga, bloglarga va veb-saytlarga havolali postlar joylashtirishi bilan ajralib turadi. Bloglar asosiy omili iqtiboslar indeksi va trakback (“teskari havola”) bo’lgan makonda mavjud bo’lganligi sababli tavsiya etilgan bloglar ro’yxati bo’lishi shart. Uchinchi xususiyati shundaki, bloglar bir vaqtning o’zida muallifning uslubi va muloqot vositasini o’zida ifoda eta oladi. Bloglarda qayd etilgan havolalar va foydalanuvchilar fikri yordamida fikr almashish uchun sharoit yaratiladi.

Bloglar ommaviy axborot vositalarini demokratlashtirish va “yangi ommaviy axborot vositalari” paydo bo’lishi fonida nafaqat interaktivligi, balki unda internetdan foydalanish imkoniga ega har bir foydalanuvchining o’z shaxsiy sharh va fikrlarini qoldirish imkoniyati mavjudligi bilan ham alohida ajralib turadi. Fuqarolik jamiyati rivojlanmagan va avtoritar siyosiy rejim va erkin bo’lmagan ommaviy axborot vositalari bilan o’zaro bog’liq bo’lgan mamlakatlar uchun bu umuman olganda ijtimoiy hayotni demokratlashtirishning muhim omili bo’lib tuyuladi. Shunday qilib, bloglar J.Xabermasning fikriga ko’ra, jamiyat va davlat o’rtasida fuqarolarni, ularning ijtimoiy-iqtisodiy holatidan qat’i nazar, tanqidiy masalalar yuzasidan o’z fikrlarini joylashtira oladigan munozara maydoniga aylanadiki, bunda bloglar ko’prik vazifasini bajaradi.¹⁰

Dunyoda millionlab bloglar mavjud va ularning barchasi bir-biri bilan chambarchas bog’liq, bloggerlar bir-birini o’qiydi va sharhlaydi, bir-biriga murojaat qiladi. Shunday qilib, maxsus subkultura yaratiladi. Internetda joylashtirilgan, jamoat yoki ijtimoiy tarmoq deb tushunilgan barcha bloglarning to’plami blogsoha (inglizcha blogosferadan) deb nomlanadi. Blogsha bloglar va oddiy veb-sahifalar va Internet-forumlar o’rtasidagi asosiy farqlardan biriga e’tibor qaratadi: o’zaro bog’langan bloglar dinamik global axborot muhitini tashkil qilishi mumkin. Inglizcha blogosfera so’zini birinchi marta 1999 yilda Bred Grem hazil tariqasida ixtiro qilingan.¹¹U

¹⁰ 1 Habermas J. The Structural Transformation of the Public Sphere: An Inquiry into a category of Bourgeois Society. – Polity, Cambridge, 1989. – С.36 – 37.

¹¹ Кочеткова, М.О., Тубалова, И.В. Динамика развития блога как жанра дискурса блогосферы: социолингвистический аспект// Вестник Томского государственного университета. – 2014. – № 1 (27). – С.



“Goodbye, cyberspace! Hello, blogiverse! Blogosphere? Blogmos?” (“Xayr, kibermakon! Salom, blogsoha! Blogosfera? Blogmos?” deb yozgan edi. Keyinchalik, 2002 yil boshlarida bu atama Uilyam Tez tomonidan qayta ixtiro qilindi va qayta muloqotga kiritildi va darhol Amerikaning Afg'onistondagi operatsiyasini yoritadigan harbiy bloggerlar jamoasida tarqaldi. 2002 yilda bu so'z birinchi bo'lib LiveJournalning ruscha bloglarida paydo bo'ldi.

Blogsohaning rivojlanish tarixi 1999 yilga borib taqaladi. San-Fransiskoda joylashgan Pyra Labs kichik kompyuter kompaniyasi Blogger portalini yaratdi. Bu blogsohani boshlagan birinchi bepul, ochiq manbali va ishlatish uchun juda qulay vosita edi. Keyinchalik uning rivojlanishi juda jadal sur'atlarda taraqqiy etib bordi, natijada 2008 yilga kelib Internetda har soniyada bitta blog paydo bo'la boshladi, bugunga kelib biron bir mutaxassis ularning aniq sonini aytib bera olmaydi.

Blogsoha media qarashlarini rivojlanishi bilan alohida ajralib turadi. U shaxslararo muloqotning kommunikativ manfaatlariga xizmat qilish bosqichidan Internet foydalanuvchilari keng doirasining o'zaro ta'siriga o'tish jarayonida amalga oshiriladi. Natijada bloglar janri o'zgartirishlarga yuz tutdi.

Blogsoha rivojlanishining turli bosqichlaridagi dinamikaning qaysi jihati ijtimoiy tarafdin blogning janr qarashlariga ta'sir ko'rsatishini va ularning o'zgarishiga olib kelishini ko'rib chiqaylik.

Birinchi bosqichda blog “klassik” qog'ozli kundalik xususiyatlariga egaligi bilan ajralib turib, unda o'quvchilar blog egasining kechinmalarini o'qish imkoniyatiga ega bo'lgan, xolos.

Ikkinchi bosqichda Internet-muloqot qarashlari qayta taqsimlanadi. Yangi ijtimoiy resurslar paydo bo'ldi, blog formati o'zgartirildi – mikrobloglar, blog-“devorlar” paydo bo'ldi. Shaxsiy qarashlar va fikrlar xilma-xilligi ijtimoiy tarmoqlarda dastlabki planga ko'chdi. An'anaviy kundalik ko'rinishidagi blogsoha chekinadi. Internet blogsohasi o'zgarishni boshlaydi. Endilikda o'quvchilarning e'tiborini tortadigan yo'nalish birinchi o'ringa chiqadi. Bu davrga kelib, blogsoha Internet



hamjamiyati tomonidan ijtimoiy kuch sifatida qabul qilina boshlandi. Rivojlanishning bu bosqichida blogsohani yagona hamjamiyat sifatida anglash guruhni identifikatsiya qilish va ommaviy oflayn harakatlar uchun boshqaruv funksiyasini shakllantirish orqali uni alohida soha sifatida namoyon qilish ishlari boshlandi.

O`zgarishlarning uchinchi bosqichida blog kundaliklari nihoyat munozarali jamoat maydoniga aylantirildi, buning uchun blogda amalga oshiriladigan javoblar, fikrlar, noroziliklarni amalga oshirish uchun platforma zarur bo`ldi.

Blogsoha – bu aloqa qilish, ma`lumot qidirish va almashish, o`z fikrlarini shakllantirish va bayon qilish uchun mo`ljallangan barcha tarmoq bloglarining global bazasi. Shuningdek, u jamoatchilik fikri va madaniy memlarni o`rganish uchun muhim vosita bo`lib, ko`pincha zamonaviy global ijtimoiy tendentsiyalarni o`rganadigan akademik va akademik bo`lmagan ishlarda hisobga olinadi. Bir qarashda, blogsoha o`ziga xos betartiblik bo`lib tuyulishi mumkin, ammo aslida u o`zining ierarxiyasiga ega bo`lib, unda eng ta`sirchan tanlangan bloglar ajralib turadi. Blogsoha – bu “do`stlar”ga murojaat qiladigan va dunyo hamjamiyati hayotidagi voqealarga javob beradigan to`g`ridan-to`g`ri aloqa kanali. Blogsoha tarmoq hamjamiyati sifatida dunyoning turli burchaklaridagi jinsi, ijtimoiy mavqei va millatidan qat`iy nazar turlicha odamlarning qiziqishlari va kayfiyatlarini aks ettiradi. Shu bilan birga, blogsoha qulay reklama platformasi, jamoatchilik ongiga ta`sir o`tkazish va marketing va ijtimoiy tadqiqotlar olib boradigan platforma bo`lib maydonga chiqadi.¹²

Blog Internet-texnologiyalarni rivojlantirish natijasida hosil bo`lgan yangi aloqa kanali. U axborotni tarqatishning eng yuqori tezligi, kuchli teskari aloqa, ommaviylik va uzatilayotgan ma`lumotlarning o`ziga xos xususiyati bilan ajralib turadi. Blog internet aloqasining eng moslashuvchan va ko`p funktsional shakli hisoblanadi. Inson noma`lum va noaniq, ammo shu bilan birga o`z harakatlarida avtonom bo`lgan butun

¹² Психология общения. Энциклопедический словарь. Под ред. А. А. Бодалева. – М.: Когито-Центр, 2011. – С. 345 – 348.



virtual madaniyat yaratdi. Bloglarning o'ziga xos xususiyati "hamma bilan yolg'iz" bo'lish qobiliyatida, jamoatchilik va samimiyatning qorishuvidadir.¹³

Bloglar insonning global tarmoq makonidagi kengaytmasi bo'lib, odamni jamiyatdan ajratmaydi. Blog o'z muallifi uchun "raqamli organ" vazifasini bajaradi va u uchun o'zini namoyon qilish uslubiga aylanadi. Insonlarning o'z fikrini do'stlari va hamkasblari bilan baham ko'rish uchun shaxsiy onlayn kundalik sifatida yaratilgan bloglar an'anaviy ommaviy axborot vositalari bilan, shu jumladan Internet tarmog'i bilan raqobatlashadigan va ommaviy axborot vositalarini samarali boshqarish imkonini beradigan kuchli nashriyot vositasiga aylandi. Bu millionlab Internet foydalanuvchilariga hamkorlik qilish, fikr almashish va tarmoqdan tashqarida muvofiqlashtirishga yordam beradigan tarmoq tuzilishi demakdir. "Blogsoha" atamasi aloqa muhitining ushbu yangi sifatining aksi sifatida paydo bo'ldi.

O'zbekistonda ham blog va blogsohaning rivojlanishini uzoq o'tmishdan qidirishning hojati yo'q. O'zbekzabon bloggerlar o'rtasida bo'lib o'tgan ilk chempionatning g'oliblari, O'zbekiston, AQSH va Qirg'izistondan turib yozgan bloggerlarni tashkil qilgan, deb yozadi bbc.com elektronik nashri.¹⁴

2014 yilda ilk marotaba tashkillashtirilgan chempionatda 116 ta ishtirokchi qatnashdi. Qariyb 3 oy davom etgan turnirning yakuniy bosqichidagi natijalar 21-mart arafasida e'lon qilindi. 12-aprelda esa sovrindorlarni taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi, deyiladi xabarda. Bundan ko'rish mumkinki, O'zbekistonda blogerlik faoliyatida katta burilish yasagan mazkur tanlov, ushbu sohaning rivojiga ham o'ziga xos turtki bo'ldi.

Mamlakatimizda prezidentning hukumat mulozimlarini halol tanqid qilishi jamoatchilikni, shu jumladan jurnalistlarni hukumat harakatlariga nisbatan shubha bilan qarashga undadi. Jurnalistlar keng ko'lamli mavzularga chuqurroq tahlil qilish bilan murojaat qila boshladilar. Ammo yangi davr bosma ommaviy axborot vositalari

¹³1 Евсюкова, Т.В., Гермашева, Т.М. Основные подходы к определению понятия «блог» и «блогосфера» в лингвистике // Гуманитарные, социально-экономические и общественные науки. – 2015. – № 11 – 2. – С. 239.

¹⁴https://www.bbc.com/uzbek/uzbekistan/2014/04/140423_uzbek_bloggers_championship



u yoqda tursin, yangiliklar saytlarini ham shov-shuvli rivojlanish nuqtasiga olib kelmadi. Buning o'rniga, media muhitida yangi mualliflar va bloggerlar sinfi paydo bo'ldi.

Fuqaro faolligini oshirishga turtki ko'plab ommaviy axborot vositalaridan holi tarzda paydo bo'ldi va ularning ba'zilari endi muxlislari – sodiq o'quvchilariga ega bo'lib ulgurdi. Hukumat yangi tendentsiyani rivojlanishida hech qanday rol o'ynamadi, bunda bloglar faoliyati to'siqlarsiz media maydoniga chiqib keldi.

Mamlakat tarixida birinchi marta o'zbek bloggerlari Prezident farmoni bilan rasman tan olindi. 2019 yil 27 iyun kuni matbuot erkinligi kunida Bosh vazir Abdulla Aripov mamlakatimizning ikki nafar eng kuchli blogerlarini – @xushnubek (Xushnubek Xudayberdiev) va @davletovuz (Qobil Xidirov)ni mukofotladi. Ularning blogerlik faoliyati an'anaviy ommaviy axborot vositalarining boshqa vakillari qatorida alohida e'tirof etildi. Ushbu bloggerlar o'z xabarlarini joylashtirish uchun Rossiyada ishlab chiqilgan Telegramdagi xabar almashinish dasturidan foydalanishadi. 2021 yil 2-mart holatiga ko'ra @xushnubekning 299 374 nafar, @davletovuzning esa 60380 dan ortiq kuzatuvchisi bor edi. Ikkala bloggerning auditoriyasi har kuni o'sib bormoqda.

Ikkala bloger ham mamlakatimizda sodir bo'layotgan voqealarga zudlik bilan o'zlarining ochiq fikrlarini bayon etishadi, obunachilari bilan bu mavzularni o'rtoqlashib, tanqidiy va tahliliy qarashlarini bayon etadi. 2021 yilga kelib, bu media makonda yana bir qator blogerlar shakllanib ulgurdiki, ular yozayotgan har bir post va xabarlar chuqur tahliliy nuqtai nazarga ega bo'lib, qonun va huquqiy doirada asoslar bilan sharhlanadi. Ular qatoriga Zafarbek Solijonov (29 039), Rasul Qo'shirboyav (50 945), Effect Makarenko (20 613), Tentakminds (27 890) va boshqa blogerlarni ham kiritishimiz mumkinki, ular aynan Telegram tarmog'ida o'z fikr va mulohazalarini dadil ayta olayotgan blogerlardir.

Oddiy va bepul taqdimot o'quvchilarni o'ziga jalb qiladi. Ikkala bloger ham jamiyatning qoidalarga asoslangan modelini targ'ib qilishadi, imkon qadar ko'proq



vatandoshlarimiz hayotiga ta'sir qiladigan davlat me'yorlarini tarqatadilar va tahlil qiladilar. Obunachilar voqealarga tezkor munosabatda bo'lishni, bloggerlar bilan muloqot qilishni, so'rovnomalarda qatnashishni, boshqa o'quvchilarni jalb qilishni yoki hatto o'zlari blog yuritishda ilhomlanishini qadrlashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nargis Qosimova. Onlayn jurnalistika. – T.: 2019. – 319-320bb.
2. <https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%91%D0%BB%D0%BE%D0%B3>
3. Лутовинова, О.В. Лингвокультурологические характеристики виртуального дискурса. – Волгоград: ВГПУ «Перемена», 2009. – С. 200